



O‘ZBEK VA TURK FOLKLORSHUNOSLIGIDA LAPAR JANRINING O‘RGANILISHI

Turobova Mohinur

Abstrakt: Ushbu tezis o‘zbek va turk laparlarining ilmiy-nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda lapar va qarshilik manining o‘xshash va farqli jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, har ikki qardosh xalq urf-odati, madaniyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar ham keltirib o‘tilgan. Maqolada turkiy xalqlarning urf odati, marosimlari hamda ijro o‘rni, ijro shakli, ijro hajmi naqadar o‘xshash ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, ikki qardosh xalqning badixago‘yligi, so‘zamonligi turkiy xalqlarning ildizi bir ekanini yana bir bora yodimizga soladi.

Kalit so‘zlar: Lapar, qarshilik mani, marosim, toren, aytishuv.

Lapar janri uzoq tarixga borib taqalishi janrning, qadimiy ekanidan dalolatdir. Lapar janrining vujudga kelish masalasida ham folklorshunosligimizda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, taniqli folklorshunos M. Alaviya: “O‘lan, lapar, yor-yor qadimda bir bo‘lgan. Keyingi vaqtlarda turli to‘y marosimlari, har joydagi kishilarning yashash sharoitlari bilan bog‘liq ravishda ular orasidagi tafovutlar kuchaygan.

Ularning har biri to‘y marosimining ma‘lum bosqichi bilan bog‘lanib qolgan va mustaqil qo‘shiq turiga aylangan”, - deb yozadi. Professor B.Sarimsoqov esa lapar va o‘lan janrlarining tarixan aloqadorligini e‘tirof etgan holda har ikki janrning yor-yor janri bilan aloqadorligiga qo‘shilmaydi.

Marhum professor H.Razzoqov o‘lan, yor-yor, lapar kabi to‘y marosim qo‘shiqlari haqida to‘xtalib, mazkur qo‘shiqlarning har biri mustaqil janr ekanligini qayd etib quyidagicha yozadi: “Laparlar xalq qo‘shiqlarining bir turi bo‘lib asosan yigit-qiz o‘rtasida ijro qilinadi. Bu jihatdan laparlar o‘lanlarga o‘xshab ketsalarda, tematika, g‘oyaviy mazmuni, vazni va yengil musiqiyliigi, o‘zidagi yumor-satira elementlarining o‘tkirliigi bilan ulardan farq qiladilar”.

N. Qosimov esa laparni shunday talqin qiladi: “O‘lan ham, lapar ham, yor-yor ham to‘y marosimining turlicha uzvlarida ijro etilib, o‘zlariga xos vazifani ado etadilar. Masalan, yor-yor qiz uzatar kechasi ijro etilsa, lapar va o‘lanlar «qizlar bazmi» da ijro etilgan”.

Har uchala janr ham bir-biridan farqlanuvchi o‘zlariga xos ijro usuli, ijrochilari va badiiylik xususiyatlariga ega. Mantiqan yondashilsa, tarixan bir bo‘lgan janr keyinchalik turli ijrochilar tarkibiga ega bo‘lgan, turlicha mavzu va poetik xususiyatlar kasb etgan mustaqil janrlarga ajralib keta olmaydi. Bundan tashqari, bu janrlarning ijro etilish o‘rni va vaziyatlari ham keskin farqlanadi. Demak, o‘lan, lapar va yor-yorlar o‘zbek to‘y marosimining mustaqil janrlari hisoblanadilar. Lapar janri Turk folklorida esa biroz kengroq tushunchada hisoblanadi. Ularda lapar atamasi mani deya yuritiladi. O‘zbek laparlari faqat ikki jins vakillari orasida aytilsa



turk aytishuvlarida esa nafaqat yigit-qiz balki, ona va qiz, ota va o'g'il, kelin-qaynona orasida ham aytilaveradi. Mavzu jihatdan ham turk aytishuvlari ancha kenroq hisoblanadi. Ammo ijro tarzi, aytilish o'rni, tuzilishi, qofiyalanishi juda o'xshash.

Manining ilk o'laroq qachon vujudga kelgani haqida aniq ma'lumot yo'qligi bilan bir qatorda, ilk Islomiy turk asarlarida bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"da va ichidagi adabiy matnlarning aksariyatiga yaqini Islomdan avvalgi zamonga oit bo'lgan "Devonu Lug'otit turk"da bugungi maniga o'xshash to'rtlikda kelgani, manining Islomdan avvalgi vaqtda ham mavjud bo'lgan bir shakil bo'lganini ko'rsatadi. Yana u vaqtlarning boshqa bir muhim asari bo'lgan "Hubat ul haqoyiq"da ham mani-tuyuq deganimiz to'rtliklar topilgan. XIV asrda yozuvga ko'chirilgan "Dada Qo'rqu" hikoyalarining nasr qismlarida 7 hijoli 4+3 turoqli maniga xos xususiyatlari bor parchalar kelishi, mani shaklining qadimiy ekaniga bir boshqa ishoratdir.

Ayni asrlarda Yunus Emre ham bu shaklga katta ahamiyat bermish, buni: "Tiling bilan kuylarsan, ko'p manilar o'qirsan" baytidan ham mani haqidagi qarashini bayon qilib, manining ko'p bilingan va ko'p qo'llanilgan bir shakil bo'lganini ko'rsatadi. Mani so'zining qayerdan kelgani aniq o'laroq mavjud emas.

Ko'rib turganimizdek, lapar va mani kelib chiqish jihatidan juda qadimir janr hisoblanadi. Ikkisining ham qachon kelib chiqqani haqida aniq fikrlar mavjud emas. Tahminlarga ko'ra ushbu janrlarning kelib chiqishi marosim folkloriga borib taqaladi. Turk olimlari manining 7 hijoli 4+3 shaklida ekanini alohida ta'kidlab o'tishgan bu esa ushbu janr lapar janriga juda o'xshash ekaniga ishoradir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алавия. М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: 1959. – Б. 116.
2. Саримсоқов .Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: 1986. – Б. 223.
3. Mehtar K.. Kutahya manilari Kutahya;, 2012 104 sayfa.